

TALABALARNING QAROR QABUL QILISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA CASE STUDY VA CASE ANALYSIS METODLARINING TIZIMLI-INTEGRATIV MODEL

Ahmedova Iroda Nurmuhamedovna^{1,2},

¹ Toshkent Xalqaro Ta'lim Universiteti (TIUE)

² O'zMU mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: akhmedovairoda11@gmail.com

DOI: 10.61587/mmit.tiue.uz.v1i1.247

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida talabalarning strategik fikrlash, tanqidiy tahlil va asoslangan qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish zarurati tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Case Study va Case Analysis metodlarining maqsadi, xarakteri, vazifasi va natijalari tizimli yondashuv asosida qiyosiy tahlil qilinib, ularning integrativ modeli ishlab chiqilgan. Taklif etilgan model muammoni o'rganish, tahlil qilish va optimal yechimni tanlash bosqichlarini uzviy bog'lash orqali talabalarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari mazkur metodlarning integrativ qo'llanilishi yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: qaror qabul qilish kompetensiyasi, Case Study, Case Analysis, tizimli yondashuv, kognitiv kompetensiya, tanqidiy fikrlash, strategik fikrlash, pedagogik texnologiyalar, oliy ta'lim, muammoli vaziyatlar, soft skills, integrativ model.

A SYSTEMATIC-INTEGRATIVE MODEL OF CASE STUDY AND CASE ANALYSIS METHODS IN DEVELOPING STUDENTS' DECISION-MAKING COMPETENCE

Akhmedova Iroda Nurmukhamedovna^{1,2},

¹ Tashkent International University of Education (TIUE)

² Independent researcher at the National University of Uzbekistan

E-mail: akhmedovairoda11@gmail.com

Abstract. This article analyzes the need to develop students' strategic thinking, critical analysis, and informed decision-making skills in the modern education system. During the study, the purpose, nature, function, and results of the Case Study and Case Analysis methods were analyzed on the basis of a systematic approach, and their integrative model was developed. The proposed model serves to develop students' cognitive competencies by linking the stages of problem study, analysis, and selection of the optimal solution. The results of the study show that the integrative use of these methods has high pedagogical effectiveness.

Keywords: decision-making competence, Case Study, Case Analysis, systematic approach, cognitive competence, critical thinking, strategic thinking, pedagogical technologies, higher education, problem situations, soft skills, integrative model.

Kirish (Introduction)

Hozirgi kunda yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyalarga ega, murakkab vazifalarni mustaqil hal qila oladigan mutaxassislarga bo'lgan talab tobora oshmoqda. Har bir sohaga yo'naltirilgan oliy ta'lim tizimida shunday mutaxassislarni, xususan, tahliliy va tanqidiy fikrlash, mustaqil ravishda oqilona qaror qabul qilish qobiliyatiga ega mutaxassis kadrlarni tayyorlash bilan bog'liq masalalar qamrovi keng. Bu borada, 2019 yilning 14 avgust kuni 9 oy va yil yakuni bo'yicha o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishda Prezidentimiz "Eng katta xavf – kadrlar saviyasi, bilimi, ilmi va fidoyiligida. Ming afsuski, eng og'ir masala shu"[1]. degan fikrlari yuqorida keltirilgan talablarga javob beradigan kadrlar tayyorlash muammosiga urg'u berildi.

Ta'lim sohasidagi masalalar bo'yicha izchillik bilan yechim izlashga muhim e'tibor qaratib kelinmoqda. Prezidentimiz Oliy Majlisga Murojaatnomasida aytganidek, "O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik"[2].

Xususan, huquqshunoslik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va takomillashtirishlar negizida tizimdagi kamchiliklarni o'rganish, va ularga yechim topish borasida Haydarova U. fikridan, "Lekin o'z o'rnida tizimda mavjud muammolarning amaliy yechimlarini topish xususida fikr-mulohazalar bilan o'rtoqlashish umuman fan-ta'lim sohasida alohida ahamiyatga molik masaladir. Xususan, huquqiy fanning istiqboli bevosita zamonaviy fikrlaydigan, mustaqil va tezkorlik bilan qarorlar qabul qila oladigan, yuridik hujjatlar loyihalarini yarata oladigan, o'z sohasining eksperti hisoblangan huquqshunos kadrlarga bog'liq"[3].

Metodologiya (Methods)

Yuridik sohada ilmiy kadrlarni tayyorlash holati, tahlili va rivojlantirish masalalari o'rganish mobaynida M.M. Mamasiddiqov fikricha «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni esa tizimda muhim o'zgarishlar amalga oshirilishiga yo'l ochdi. Mazkur Farmon yuridik ta'lim va fan tizimini tubdan takomillashtirish, ularning xalqaro ta'lim maydonidagi raqobatbardoshligini ta'minlash, yuridik kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadini nazarda tutuvchi muhim huquqiy hujjat sifatida tarixiy ahamiyat kasb etadi"[4, 22-36 b.].

Yuqorida keltirilganlar asosida huquqshunoslik ta'lim talabalarida strategik qaror qabul qilishda kognitiv kompetensiyalarni xosil qilish masalalarini o'rganish muhimligi nazarda tutildi.

Zamonaviy mutaxassislarni tanlashda asosiy e'tibor mustaqil fikr yuritishi, tizimli va tanqidiy tahlil qilishi, shaxsiy xususiyatlari (softskills) rivojlantirilganligi, hamda noaniq, murakkab, riskli sharoitlarda to'g'ri ratsional qaror qabul qilish kompetensiyalariga ega bo'lish talablari qo'yiladi. Yuqorida keltirilgan kompetensiyalarni mukammal hosil qilish tizimli tahliliy yondashuvni va kognitiv metodlarni qo'llash asosida yuqori ko'rsatkichlarga erishish xususida G.O.Ismoilova fikridan, "zamonaviy yondashuvlarda bilimning amaliy qo'llanilishi, ko'nikma va kompetensiyalarni aniqlash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda"[5].

Bugungi kunda Case-study metodologiyasi ijtimoiy fanlarda ishlab chiqilgan va keng qo'llaniladigan vositadir [6;102]. Birinchi bunday amaliy tadqiqotlar biznes, huquq va keyinchalik tibbiyot kabi kasblarda qo'llanilgan [7]. Case-study bizga aniqroq obyektlar bilan ishlash imkonini beradi. Bu bizga ijtimoiy voqelikni va har bir obyektning o'ziga xosligini yaxshiroq tushunishga, shu bilan birga keyingi umumlashtirish uchun umumiy xususiyatlarni aniqlashga imkon beradi [6;102].

Case-study ning maqsadlari va u odatda o'rganish uchun qo'yadigan muammolar turlari ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishning o'ziga xos usullarini taklif qiladi [8]. Qaror qabul qilish jarayoni keyslarda berilgan turli real muammolarni tahlil qilish asosida bilim va kognitiv ko'nikmalarini hosil qilish orqali takomillashtirilib boriladi. Keyslar orqali o'qitish borasida M.T.Gapparova, D.Radjabova talqinida, keys-stadi (Case study) – bu muayyan real yoki modellashtirilgan vaziyatni o'rganish, uni tahlil qilish va yechim ishlab chiqish metodidir.

Ushbu metod o'quvchilarni tayyor bilimlarni qayta hikoya qilishdan ko'ra, mustaqil tahlil qilish va qaror qabul qilishga yo'naltiradi [9].

Tezkorlik, noaniqlik, tavakkalchilik, murakkab darajaga ega sharoitlarga ko'ra, hamda ko'p mezonga bog'liq muammolarda tahliliy yondashuv bilan Case study, Case analiz, PBL, Design thinking, Simulation, AI va analytics metodlarini integrativ qo'llanishi vazifa etib belgilandi. Sharoitlarni hisobga olish, masalan, yakkalikda muammoni mustaqil yechish yoki jamoaviy ishlashda moslashuvchanlikni oshirish uchun analitik va kritik fikrlash, innovatsion yechimlar taklif etishda kreativlikka ega bo'lish, real tajribalarga tayanib stress holatida tezkor qaror qabul qilish talab etiladi. Ma'lumotlar tahlil qilinishida AI va Data analitics texnologiyasidan foydalangan holda statistika va faktlar asosida yuqori aniqlikka erishish va prognozlarni bayon etish qaror qabul qilish uchun muhim omillar sirasiga kiradi. Talabalarda ushbu kompetensiyalarini hosil qilish, ya'ni softskills xususiyatlarining takomillashuvida ularning kognitiv qobiliyatlarini oshirish zahirida ko'nikma hosil qilish masalalari bilan mujassamlilikni tashkil etadi.

Natijalar (Results)

Qaror qabul qilish jarayonida yanada mukammal natijaga erishish maqsadida "Case Study va Case Analysis metodlarining tizimli-integrativ modeli"dan foydalanishni tavsiya etiladi. Bu model metodikasiga asosan Case study (muammoni tizimli o'rganish) Case analiz (tahlil asosida yechimlar taklif etish) Natija (optimal qaror qabul qilish/asoslangan xulosa ishlab chiqish) uzviy ketma-ketligini hosil qilib, ishlash zanjiri tuziladi (rasm 1).



Rasm 1. Ishlash zanjiri

Case Study va Case Analysis metodlarining tizimli-integrativ modeli tuzish uchun jadvalda Case Study va Case Analysis metodlarining qaror qabul qilish jarayonidagi farqi maqsad, xarakter, rol, natija tizimli ketma-ketlik nuqtai nazaridan solishtirildi (Jadval 1).

Jadval 1. Case Study va Case Analysis metodlarining tizimli yondashuv asosidagi qiyosiy tavsifi

№	Asosiy jihat	Case study (tizimli yondashuvda)		Case analiz (tizimli tahlil)	
		Savol: "nima bo'lyapti?" (holatni tushunish)		Savol: "nima qilish kerak?" (qaror topish)	
1	Maqsad	O'rganish	real yoki sun'iy yaratilgan muammoni kompleks o'rganish	Yechim topish	muammoni strukturali yechish jarayoni
2	Xarakter	Tavsiflovchi	Tizim tavsifi (masalan: kompaniya, loyiha)	Tahliliy	Muammoni aniqlash; Sabablarni ajratish (root cause)
3	Rol	Kirish (input), chiqish (output)	Kiruvchi va chiquvchi omillar	Ishlov berish (process)	Variantlar ishlab chiqish; Variantlarni solishtirish
4	Natija	Tushuncha	Cheklovlar	Qaror	Eng yaxshi qarorni tanlash

Har ikkala metod muammoli vaziyatlarni o'rganishda xizmat qiladi, ammo ularning maqsadi, vazifasi va yakuniy natijalari bir-biridan farq qiladi. Bundan kelib chiqib, ularni integrativ qo'llanilishi muammoning yechimini olish uchun yuqori aniqlikda qaror ishlab chiqish nazarda tutiladi. Case Study va Case Analysis metodlarining tizimli-integrativ modeli bo'yicha maqsad, xarakter, rol, natija asosiy jihatlari sifatida o'rganildi.

Maqsad jihatidan, Case Study metodi real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni har tomonlama o'rganish va tushunish, hamda muammoning mohiyatini anglashdan iborat. Bular asosida esa, Case Analysis muammoni yechish uchun vaziyatni tizimli tahlil qilish asosida qaror ishlab chiqishga yo'naltiriladi.

Metodlarning xarakteri jihatidan, Case Study metodi ko'proq tavsiflovchi xususiyatga ega bo'lib, unda muammo ob'ekti(masalan, tashkilot, loyiha yoki jarayon)ning mavjud holati tavsiflanadi. So'ngra esa, Case Analysis metodi orqali tahliliy xarakter jihatidan muammoning sabablarini aniqlash, ularni ajratish va asosiy omillarni (root cause) belgilashga qaratiladi.

Roli jihatidan, tizimdagi vazifalari bo'yicha qaralganda, Case Study metodida asosiy e'tibor muammoga tizimli yondashuv nuqtai-nazaridan kiruvchi (input) va chiquvchi (output) elementlarini aniqlash, ta'sir qiluvchi omillar va ularning natijalarini o'rganishga qaratiladi. Shu qatorda, Case Analysis metodida jarayon (process)ni o'rganish negizida bir nechta alternativalar ishlab chiqish, ularning afzallik va kamchiliklari taqqoslash hamda baholash markaziy e'tiborga olinadi.

Natija jihatidan, Case Study metodining yakunida muammoni tushunish va uning cheklov(mezon)larini aniqlashdan iborat bo'ladi. Case Analysis metodining natijasi esa mavjud variantlar ichidan eng maqbul qarorni tanlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Xulosa (Conclusion)

Model sxemasi bo'yicha Case Study metodini muammoli vaziyatni o'rganish va tushunish bosqichida, so'ngra esa Case Analysis metodini qaror qabul qilish jarayonini ishlab chiqish bosqichida va Natija bosqichida muammoni hal etish amalga oshiriladi. Mazkur metodlarning ketma-ket va integrativ qo'llanilishi talabalarda tizimli fikrlash, muammolarni tahlil qilish hamda asoslangan qaror qabul qilish kompetensiyalarini samarali rivojlantirishda muhim pedagogik texnologiya hisoblanadi. Ushbu yondashuv orqali talabalar nazariy bilimlarni o'zlashtirish va amaliy caselar yordamida real vaziyatlarni tahlil qilish, muqobil variantlarni ishlab chiqish va eng maqbul yechimni tanlash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivoltirish bo'yicha 2019 yilning birinchi yarmida amalga oshirilgan ishlar muhokamasiga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishdagi nutqi, 14.08.2019 y. <https://uza.uz/oz/politics/>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020 y. <https://kun.uz/news/2020/01/24/shavkat-mirziyoyev-ozbekistonni-jadal-islohotlar-ilm-marifat-va-innovatsiya-bilan-rivojlangan-mamlakatga-aylantira-olamiz>
3. Хайдарова У. Юридик таълим ва фаннинг янги босқичга ўтиш тамойиллари. <https://uza.uz/posts/280276>
4. Мамасиддиқов М. М. Юридик соҳада илмий кадрларни тайёрлаш: ҳолати, таҳлили ва ривожлантириш масалалари. Юридик фан ва ҳуқуқни қўллаш амалиётининг долзарб муаммолари. Илмий-амалий конференция материаллари. I жилд / Масъул муҳаррир ю.ф.д., проф. М.М.Мамасиддиқов. –Т.: “Lesson press”. 2020. – 450 б.
5. П.В.Романов, Стратегия кейс стади в исследовании социальных служб // Журнал "Социологические исследования", № 4, 2005, <http://socis.isras.ru/>
6. Yin, Robert K., author. Title: Case study research and applications : design and methods / Robert K. Yin. <https://ebooks.umu.ac.ug/librarian/books-file/Case%20Study%20Research%20and%20Applications.pdf>
7. Becker H. S. Social observation and social case studies //Sociological Work. – Routledge, 2017. – С. 75-86.
8. Pedagogical foundations of developing students' critical thinking. (2026). International Journal of Artificial Intelligence, 6(4), 1032-1035. <https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/12425>

9. Radjabova Dilrabo, M.T. Gapparova. (2025, October 12). Keys-stadi (case study) metodida amaliy baholash imkoniyatlari. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17335004>.